

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2006-yil 3 - 9 - aprel N:14 (66555)


Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BIR MASKANKI,

ILMU ODOBNING KONI

Gap qanday maskan haqida borayotganini darhol anglagandirsiz-a? Ha, barakalla, maktab haqida... Kasbim taqozosi bilan bilim dargohlarida tez-tez bo'lib turaman va bir olam zavq-u shavq, taassurotlar bilan qaytaman. Ayniqsa, maktablarda bo'lsam, ajib bir hayajon chulg'ab oladi qalbmni. O'quvchilik yillarim, beg'am, betashvish yurgan bolalik damlarim yodimga tushib ketganidandir hayajonim boisi.



Yaqinda poytaxtimizdagi 86-maktabda bo'lganimda ham ana shunday holatga tushdim. Omadni qarangi, kattagina bayramning ustidan chiqib qolibman. Yosh kitobsevarlar Navoiy va Bobur tavalludiga bag'ishlab tadbir o'tkazishayotgan ekan. Maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Dono Xojiyeva hamda Muhayyo Ikromova boshchiligida tayyorlangan tadbirda ikki buyuk shoir ijodidan g'azal va ruboiylar o'qildi, asarlari asosida sahnalash-tirilgan lavhalar namoyish qilindi. Yig'ilganlar O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning Navoiy asarlarining so'z boyligi, ularning badiiy qimmatini haqidagi fikrlarini maroq bilan tinglashdi. Buni qarangi, tadbirga taklif etilgan mehmonlar orasida Bosh muharririmiz Umida Abduazimova ham bor ekanlar. Ular o'quvchilarga gazetaning faoliyati, kelajak rejalarini haqida gapirib berdilar. Tadbir so'ngida ota-onalardan Dildora Halilova va O'runoy Usmonova maktab kutubxonasi uchun 30dan ziyod, o'quvchilar esa 100dan ortiq badiiy kitoblarni tortiq qilishdi.

- Ma'naviy ko'mak ham homiylik-da, axir, deydi ota-onalar saxovatidan minnatdor bo'lib ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Dildora Azimova. - Fursatdan foydalanib, opadan maktab haqida, o'quvchilarning bilim va sport sohasida qo'lga kiritayotgan yutuqlari borasida ko'plab ma'lumotlarni bilib oldim.

O'zbek va

rus tillarida o'qitiladigan mazkur bilim dargohida 1255 nafar o'g'il-qiz tahsil oladi. Ingliz va nemis tillari bilan bir qatorda koreys tilini ham zo'r ishtiyoq bilan o'rganayotgan o'quvchilarning puxta bilim olishlari, sport bilan muntazam shug'ullanishlari, kasbhunar o'rganishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Maktabda faoliyat ko'rsatayotgan fan, hunar va sport to'garaklari eshigi bilim olaman, hunar o'rganaman, degan o'quvchilar uchun doimo ochiq. Sportning suzish turi bo'yicha respublika «Umid nihollari» musobaqasi sovrindori bo'lgan 10-sinf o'quvchisi Olya Gnedovskaya hamda fan olimpiadalarida matematika fani bo'yicha qatnashib, II o'rinni egallagan 11-sinf o'quvchisi Anya Tuniyans maktabning faxri sanalishadi. Maktabda adabiyotga, tasviriy san'atga mehr qo'ygan bolalar ham talaygina. Yosh qalamkashlar Dono Xojiyevadan she'r yozishning hadisini olishsa, rassom bo'lish ishtiyoqi bilan izlanayotgan bolalarga Lyudmila Mishina ustozlik qilib kelyapti. Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi yosh sportchilar esa ularga murabbiylik qilayotgan Olga Savelyeva boshchiligida muntazam mashg'ulotlar o'tkazib kelishyapti.

Maktabimni maqtaym

Maktabning kichikintoylari ham yutuqlar borasida bo'sh kelishmaypti. 4-«A» sinf o'quvchisi Hilola Abdusamatova husnixat bo'yicha tuman olimpiadasida I o'rinni, shahar miqyosida esa faxrli III o'rinni qo'lga kiritdi.

Katta tanaffus chog'ida maktabning shinamgina bog'ida

sayr qilib yurgan o'quvchilarni suhbatga chorladim:

«TADBIRSIZ KUNIMIZ YO'Q...»

-deya so'zlay ketishdi ular bir-birlariga gal bermay. - Deyarli har kuni biron bir bayram, qiziqarli kecha yo sport



musobaqalari uyushtiramiz. Shundanmi, hatto dam olish kunlari ham maktabga borgimiz kelaveradi. Mart oyining o'zida «Xush kelding, Bahor!», «Navro'zoy», «Balli, qizlar!», «Varrak sayli» kabi tadbirlar o'tkazdik. Iye, eng qiziqarlisi yoddan chiqay debdi-yu. Yaqinda 5-sinf o'quvchilarining «Muchal to'ylari»ni o'tkazdik. Kechamiz juda jonli, mazmunli o'tdi. Sahnaga yozilgan oqlik ustiga muchallar timsolidagi o'g'il-qizlar birma-bir chiqib kelishdi. «Falakshunos olim»imiz ularning har biriga ta'rif berib, it timsolida kiyinib olgan bolani kattakon taxtga o'tkazib qo'ydi. Kechamizni tomosha qilib o'tirgan onajon-u buvijonlarimiz, «Astrobod» mahallasi oqsoqollarining olqishlaridan tadbirimiz ularga ham ma'qul bo'lganini angladik. Ayniqsa, Dildora opa Azi-

movaning sa'y-harakatlari bilan bezatilgan zal va sahnamiz, ishtirokchilarning liboslari hammaga manzur bo'ldi. Bayramga atab o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlangan devoriy gazetalarni o'quvchilar katta qiziqish bilan o'qishdi...

Bu ishlarning bariga tinib-tinchimas Dildora opamiz boshqoshlar. Bunday deyishimizning boisi bor, albatta. Bir qarasangiz, opamiz yuqori sinf o'quvchilarini biror kasbga yo'naltirish maqsadida ular bilan qiziqishlar kartasi bo'yicha test sinovlari o'tkazayotgan bo'ladilar, yana bir qarasangiz, tarbiyasi og'iroq bolalar bilan suhbatlashayotgan bo'ladilar. Ularning bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazayotganliklarini nazorat qilib turish maqsadida maktab bilan bog'lab qo'yishga intiladilar. Yana, to'garaklar faoliyatini, sinf rahbarlarining ish rejalarini, ochiq tarbiyaviy soatlarning o'tishini kuzatib borishga ham fursat topadilar. «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatidan gazetalarni olib kelib, o'quvchilarga tarqatadilar va shu yo'l bilan gazetxon bolalar soni ortishiga o'z hissalarini qo'shib kelyaptilar.



- Zimmangizga shuncha vazifa yuklatilgan ekan, charchab qolmay sizmi? - so'rayman ulardan.

- To'g'ri, ishimiz oson emas, lekin «yugur-yugur»larimning mahsulini ko'rsam, bor charchog'im ham chiqib ketadi, deydi ustoz mayim jilmayib.

Men esa kelajagimiz egalari bo'lmish farzandlarimiz tarbiyasi ishonchli qo'llarda ekanligidan quvondim.

Muxbirimiz lavhasi.

USTOZDAN MINNATDORMAN

Men Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi Mamanazar Qurbonov nomli 12-o'rtta maktabning 8-«A» sinfida tahsil olayapman. Bizga katta tajribaga ega ustozlar saboq berishadi. Katta-yu kichik birdek hurmat qiladigan birinchi ustozimiz Gulnora opa Nosirova ulardan biri bo'ladilar. Ustoz bizni mehribon, samimiy bo'lishga, faqat oldinga intilib yashashga, ezguliklar qilishga o'rgatdilar. Sinfimizda 40ga yaqin o'quvchi bo'lib, oramizda sho'x, to'polonchi bolalar ham yo'q emasdi. Shunday bo'lsa ham Gulnora opa charchash nimaligini bilmasdilar. Dars davomida barcha o'quvchilar bilan savol-javob qilishga ulgurardilar. Ular ta'lim bergan ba'zi o'quvchilar hozir o'zlari bilan birga ishlamoqdalar. Men maktabimizda tashkil etilgan «Zulfiyaxonim qizlari» tanlovida ishtirok etib, faxrli ikkinchi o'rinni olishga muvaffaq bo'ldim. Bu yutug'imda Gulnora opaning ham katta hissalar bor, deb o'ylayman. Ularning chekkan zahmatlariga, mashaqqatlariga javoban men kelajakda elimga chin dildan xizmat qiladigan, ota-onamning, qolaversa, ustozimning ishonchini oqlaydigan farzand bo'lib yetishishga so'z beraman.

Maftuna JUMANAZAROVA.

JONKOYAR INSON EDI

Salom, aziz tahririyat xodimlari! Maktabimiz o'quvchilari «Tong yulduzi»ni qo'llaridan qo'ymay o'qishadi. Unda chop etilgan turli mavzudagi maqolalar kishini fikrlashga, mushohadaga chorlaydi. Bu gazetani o'qishni, undagi har bir maqolani tahlil qilishini, mazmun - mohiyatini tushuna bilishni bizga adabiyot o'qituvchimiz Muslima opa Ahmedova o'rgatgan edilar. Ularning darslari bo'ladigan kuni, tezroq boshqa darslar tugab, adabiyot darsi boshlansaydi, deb kutib o'tirardik. Chunki ular darslarini shunday o'tardilar-ki, biror asarni o'tayotgan bo'lsak, xayolan o'sha asar qahramoniga aylanib qolardik. Asardagi voqealar shundoqqina ko'z oldimizda sodir bo'layotgandek tuyulaverardi. Afsuski, shunday ustozimiz bizni tashlab ketdilar. Lekin ular bergan ta'lim-tarbiya, demakki, ularning o'zlari ham hamon yodimizdalar.

Shalola BOTIROVA,
Samarqand viloyati, Jomboy tumanidagi
54-maktab o'quvchisi.

Hamisha uyg'oq xotira



«BALLI QIZLAR!» DA YIGITLAR G'OLIB



Bizning Shayxontohur tumanidagi Alisher Navoiy nomli 40-maktabimizda o'quvchi qizlarning bilim va salohiyatini, topqirligini, zukkoligini aniqlash maqsadida, «Balli qizlar!» tanlovi bo'lib o'tdi. Tanlov qatnashchilari pazandalik, raqqosalik, topqirlik, she'r o'qish mahorati kabi bir necha sohalarda qizg'in bellashdilar. Nomi «Balli qizlar!» bo'lgani bilan, sahnada nafaqat qizlar, balki o'g'il bolalar ham o'zaro kuch sinashdilar.

– Bu tanlov o'quvchilarning oila haqidagi tushunchalarini bilish, bo'sh vaqtlarini unumli tashkillashtirish, sport turlariga qiziqirish, diniy ekstremizm va aqidaparastlikka qarshi g'oyalarni targ'ib qilish, bir so'z bilan aytganda, yigit-qizlarni hayotga tayyorlash maqsadida tashkillashtirildi, - deydi maktabimiz rahbari Go'zal opa Maqsudova.

Tanlovni tashkillashtirishda «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fani o'qituvchisi Barno Shukurova, shuningdek, Ra'no Tolibjonova, Jamila Ahadjonova, Umida Yunusova, Lobar Xo'jayeva kabi ustozlarimizning xizmatlari beqiyosdir. G'olib o'quvchilarimizdan Mohira Mirzayeva, Hurziyod Yoqubjonov, Nodira Rahimjonova, Abror Dadajonovga «Maktabning ijodkor o'quvchisi», «Eng topqir o'quvchi», «Maktabning eng nafosatli qizi», «Maktabning eng bilimdon o'quvchisi» kabi nominatsiyalar bo'yicha «Faxriy yorliq»lar va esdalik sovg'alari topshirildi. Ushbu tanlov barchamizda katta taassurot qoldirdi.

Nazokat AHMEDOVA,
shu maktab o'quvchisi.

HASHAR BIZGA YARASHARI!

Bahor yasharish va yangilanish fasli. Qish bo'yi ko'zimizga xunuk ko'rinib yotgan joylarni kunlar isiy boshlashi bilan tozalashga tutinamiz. Qilgan ishimizdan o'zimizning ham, atrofdagilarning ham ko'ngillari yorishadi.

Hamma joyda bo'lgani kabi bizning maktabimizda ham tez-tez shanbaliklar o'tkazilyapti. O'g'il bolalar yerni ag'darib, gullar va manzarali o'simliklar ekishga tayyorlab qo'yishdi. Maktab atrofidagi nurab ketgan devorlarni ta'mirlab, oqlab qo'yishdi. Qizlar esa hovlilarni tozalab supurishdi. Zumda hammayoq chiroyli bo'lib ketdi. Qilgan ishimizdan o'zimiz ham, muallimlarimiz ham mamnun bo'ldik.

Ertaga ana shu chiroyli maskanda o'zimiz bilim olishimizni o'ylab, xush kayfiyatda uyuyimizga tarqaldik.

Gulruh ALIYEVA, Abbas PO'LATOV,
Buxoro viloyati, G'ijduvon
tumanidagi 30-son
umumta'lim maktabining
7-«A» sinf o'quvchilari.



BUGUNNING BOLASI

Javohir Inoyatov Jizzax shahridagi 10-o'rtta maktabning 5-sinfida tahsil oladi. Darsdan bo'sh paytlarida ingliz tili to'garagiga qatnashadi. Uning uyida kattagina shaxsiy kutubxonasi bor. Javohir O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari», G'afur G'ulomning «Yodgor» va «Shum bola», Chingiz Aytmatovning «Oq kema» kabi asarlarini allaqachon o'qib bo'lgan. U hamisha sevimli qahramonlariga o'xshashga intiladi. Javohir Jizzax viloyati televideniyesining «Munavvar tong» dasturida «Bolalar» sahifasini olib boradi. Mustaqil matnlar yozadi. She'rlar ham mashq qiladi.

Biz tug'ilgan ona vatan,
Quchog'ida ulg'ayamiz.
U onamiz – bizni sevgan,
Iftixori g'ururimiz.
Endi bizni tanib ellar,
Havas qilsin baxtimizga.
Ertasini obod qilib,
Shu o'lkada baxtli biz-da!
Kelajakda jurnalist bo'lishni
orzulayotgan kichkina do'stimiz o'z
vazifasiga bugundanoq astoydil kirishgan.



Dilfuza XOLMATOVA.

TADBIR TADBIRGA ULANDI

Men maktabimni juda yaxshi ko'raman. Chunki o'zbek, rus, ingliz va nemis tillari chuqur o'rgatiladigan ilm maskanimizda puxta bilim olishimiz uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. O'qituvchilarimiz juda mehribon, shu bilan birga o'ta talabchan, qattiqqo'ldirlar. Darslarni shunchaki o'tib qolmay, kecha va tadbirlar asosida mustahkamlab ham borishadi.

Yaqinda ingliz tili o'qituvchimiz Moroz Saniya Ziyadullayevna boshchiligida kecha uyushtirdik. Har bir chiqishimiz, yod olgan she'rlarimiz, qo'shiqlarimiz, sanha ko'rinishlarimizning bari ingliz tilida bo'ldi. Hatto tomoshabin bo'lib o'tirgan ustoz-u tengdoshlarimiz ham kechamizning bevosita ishtirokchisiga aylanishdi. Qanday qilib, deysizmi? Biz ularga ingliz tilida savollar berdik. Ular esa burro-burro javob qaytarishdi. Shu tariqa o'qituvchilarimiz bizning ham, tomoshabinlarning ham bilimimizni yana bir bor o'tkazishdi. O'quvchilar olmagan murakkabroq maktabimiz direktori Sulaymanovna juda berdilar. Shu tariqa kimyo-biologiya fani bo'libgina qolmay, puxta bilishlarini barchamizga ibrat bo'ldilar.

Kuni kecha shunday tadbirni rus tilida ham o'tkazdik. Uning qiziqarli o'tishida jonkuyar ustozimiz Kubatina Yelena Anatolyevnaning xizmatlari katta bo'ldi.

Men rusiy zamon bolalar bilan bir maktabda, bir sinfda tahsil olayapman. Sinfimizda rus, o'zbek, qozoq, tatar, arman, ozarbayjon xalqlarining farzandlari o'qishadi. Biz bir-birimiz bilan juda ahilmiz. Bilmaganlarimizni o'rganamiz, bilganlarimizni o'rgatamiz. Sinfimizda tez-tez tadbirlar o'tkazilib turiladi. Tadbirlarga esa sinf rahbarimiz, maktabimizda 30 yildan ziyodroq tarix fanidan saboq berib kelayotgan sevimli ustozimiz Zavaruxina Irina Sergeevnaning hissasi katta. Bizga bilim olishimiz uchun kerakli sharoitlarni yaratib berayotgan maktabimizdagi barcha ustozlarga ta'zim qilamiz.

Alisher ABDULLAJONOV,
Toshkent shahar, Hamza tumanidagi
231-maktabning 8-«V» sinf o'quvchisi.



DADASIGA RAHMAT YOG'DIRGAN QIZ

Nasiba yoshligidan shifokor bo'lishni orzu qilardi. Dugonalari qo'g'irchoqlariga alla aytib, beshikka belashsa, u qo'g'irchoq «mijozlari»ni «davolash» bilan andarmon bo'lardi. Biriga dori ichirar, ikkinchisiga nina sanchib, «Bo'ldi, bo'ldi, hozir tuzalib qolasan», deya erkalab ham qo'yardi.

Lekin uning orzulari ota-onasining maslahatlariga mos kelmadi. «Yaxshi shifokor bo'lish uchun 9-10 yil o'qishing kerak. Shuncha umring behuda o'tib ketadi. Tikuvchilik esa qiz bolalar uchun juda kerakli kasb-da. Ham tez o'rganib olasan, ham pulning ichida qolib ketasan. Hozir yaxshi tikuvchini topish amri-mahol», deyishdi ular. Nasiba ota-onasining nasihatlariga quloq osdi. Lekin shifokor bo'lish orzusidan ham qaytmadi. Tikuvchilikni o'rganish barobarida uydagilariga bildirmay «uy shifokori» kurslariga ham qatnay boshladi.

Oradan yillar o'tib, Nasiba mohir tikuvchi bo'ldi. Chevar qizning ta'rifini eshitgan sovehilar serqatnov bo'lib qolishdi. Yaxshi bir oilaga kelin ham bo'ldi va oz fursatda shirin suxanligi, mehnatsevarligi bilan yangi oiladagilarning mehrini qozondi. Qo'lining gulligi, tikkan liboslarining dovrug'i qo'shni mahallalarga ham taraldi.



Shunday kunlarning birida qaynog'asining kichik o'g'li Sardor yiqilib tushib, boshi yorildi. Hamma sarosimaga tushib qoldi. Birgina Nasiba o'zini yo'qotmadi. Bolaga tinchlantiruvchi dori berib, boshining yorilgan joyini spirt bilan tozaladi va qon oqishini to'xtatdi. Bu orada «Tez yordam» ham yetib keldi. Bolani ko'zdan kechirgan shifokor unga kim birinchi yordam ko'rsatganini so'radi. Uning: «Bu yerda bizning keragimiz ham qolmabdi-ku...» degan gapini eshitib, hamma Nasibaga ola qarashdi. Shifokor esa Nasibaga yuzlanib: «Singlim, bizni kutmay bolaga birinchi yordam ko'rsatib, juda to'g'ri qilibsiz. Aks holda ko'p qon yo'qotib... kech bo'lib qolishi ham mumkin edi. Uyingizda shunday shifokor bor ekan-ku, bizni ovora qilib yuribsizlar-a!...» deya kulimsiragandan keyingina hamma xotirjam tortdi.

Bu voqeadan so'ng Nasibaga bo'lgan mehr yanada ortdi. Nafaqat oilada, balki mahallada ham biror kishi betob bo'lib qolsa, darhol uni chaqiradigan bo'lishdi. Nasibaning uydagilari esa, shifokorlikni qachon o'rgana qolibdi, deya hayron. Nasiba beruxsat o'quv kurslariga qatnagani uchun uzr so'raganida, dadasi qudalari, mahalla ahli oldida yuzini yorug' qilgani, ularga rahmat yog'dirgani uchun qizining peshonasidan o'pib qo'ydi.


«Qiz bola sepli emas, epli bo'lgani yaxshi» deganlari shu bo'lsa kerak-da.

Muxlisa MUSAXO'JAYEVA,

«Avia» litseyining 10 - «A» sinf o'quvchisi.

SALOMAT BO'LAY DESANG...

Sovuq suv ichma zinhor,
Sog'liqdan kechma zinhor.
Badantarbiya qilgin,
Buni sen odat bilgin.
To'yib-to'yib yeb ovqat,
Yotib uxlama faqat.
Nafsingni tiygin biroz,
Oziga qilgin toqat.
Dardlarning eng og'iri -
Bilgin, tishning og'rig'i.
Shirinlikni ko'p yema,
So'ngra: «Voy, tishim!» dema.
Shamollashni o'tkinchi,
Yengil bir dard demagin.
Ko'p dardlarga asos u,
So'ng pushaymon yemagin.



Tolibjon MAQSUDOV.

JONGA - JON SHIFOKORLAR



Yaqinda otam og'ir betob bo'lib, shifoxonaga tushib qoldilar. Ularning atrofida parvona bo'layotgan oq xalati shifokorlarni ko'rib, ko'nglimiz tog'dek ko'tarildi. Har bir bemorga o'z yaqin kishisidek qarashlaridan, shirin suxanliklaridan to'lqinlanib ketdim. Shunda ayrim kishilarning, shifokorlarga ishing tushmasin, qo'lingga qarab turishadi, degan bo'lmag'ur fikrlari asossiz ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim. Otajonim tez orada oyoqqa turib ketdilar. Baxtimizga ana shunday jonkuyar shifokorlar bor bo'lsin.

Jon uchun jon talashayotgan aziz shifokorlar! Sizlarga ming rahmat. «Homiylar va shifokorlar» yili sizlar uchun barakali yil bo'lsin!

Shohsanam ALMATOVA,

Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumanidagi
8-umumta'lim maktabining

7- «B» sinf o'quvchisi.

7 - aprel - Butunjahon salomatlik kuni

Ikrom do'sti Shuhratlarnikiga yo'l olarkan, yaqinda bo'lib o'tgan noxushliklarni birma-bir ko'z oldiga keltirar, sinfdoshlariga qilgan muomalalarini eslasa, o'zi-o'zidan nafratlanib ketardi.

Shuhrat tabiatan juda nimjon bola. Ko'zi yaxshi ko'rmagani uchun ko'zoynak taqib yuradi. Buning ustiga qoni ham kam. Biror joyda uzoq turib qolsa, hushidan ketib qoladi. Boshlang'ich sinfda o'qiyotgan paytlarida o'qituvchisi to'polon qilgani uchun, stol ko'tartirib qo'yganida, hushidan ketib, yiqilib tushgandi.

Ikrom esa tamoman aksi. Sinfdagi barcha bolalar uning aytganini qilishadi. Oqni qora desa, bolalar ham shunday deyishadi. Bu esa Ikromga juda yoqadi. Axir sinfda bitta zo'r bo'lishi kerak-da. Buning ustiga boshqa sinflar bilan o'zaro kuch «sinashib», «sinfini sha'nini himoya qiladi». Har safar algebradan yozma ish bo'lganida Ikrom daftarini Shuhratga uzatib yuborar, u esa misollarni yechib berardi. Navbatdagi nazorat ishi vaqtida Shuhrat qo'lga tushib qoldi. Ustozi uning partasidagi begona daftarni ko'rib, bu kimning daftari ekanligini so'radi. Butun sinf miq etmadi. Shunda ustozni daftarni ustidagi yozuvni o'qidi.

- Daftari Ikromniki ekan-ku. Sen har safar unga misollarini yechib berar ekansan-da, a? Javob ber Shuhrat, seni dadangga aytaman, bir ta'ziringni berib qo'ysinlar.

Bolalar Shuhratning dadasi o'ta qattiqqo'l odam ekanligini yaxshi bilishardi.

- Ustoz, iltimos, meni dadamga aytmang, ularning jahllari yomon. Boshqa qilmayman, endi Ikrom masalalarni o'zi yechadi, - dedi Shuhrat zo'rg'a.

- Hali menga gap qaytaradigan bo'ldingmi? Sinfdan chiqib ket, nazorat ishidan senga ikki baho, - dedi ustozni jahl bilan. Shuhrat burnini torta-torta narsalarini yig'ishtirib, sinfdan chiqib ketdi. Tanaffus chalinganda, Ikrom Shuhratni qidirdi. - Bir adabini berib qo'yay, sotqinlik qilish qanday bo'lishini ko'rsatib qo'yaman, jilla qursa, misollarni o'zi yechardi, deb ham qo'yamdi-ya... ko'zoynak...

Ikrom shu o'ylar bilan sinfga kirarkan, deraza oldida xayol surib turgan Shuhratni ko'rib qoldi. Birdan uning yoqasidan ushlab:

- Boya ustozga chaqimchlik qilding-a, «endi o'zi ishlaydi» dedingmi? Bu bilan sen har safar misollarni ishlab berishingni ustozga sotding-a, ko'zoynak?...

SABOQ



O'zi shundoq ham holsiz bo'lib turgan Shuhrat shilq etib Ikromning oyoqlari tagiga yiqildi. Ikrom nima qilarini bilmay, shoshib qoldi. Boshqa sinfdagi bolalar buni ko'rib, Ikrom Shuhratni urib, hushidan ketkazib qo'ydi deyishdi.

Xullas, Shuhratni kasalxonaga olib ketishdi. Ikrom esa o'qituvchilar xonasiga yo'l oldi. U yerda obdon ta'zirini yeb, uyiga ketdi. Hovlida onasi bilan gaplashib o'tirgan Shuhratning oyisini ko'rib, rangi oqarib ketdi. Hozir «Bolamni nega urding?» deb yoqamdan olsa-ya, deb o'yladi Ikrom.

- Ikrom, bolajonim. Bu yoqqa kel, - dedi Zarifa aya muloyimlik bilan. Ikrom bunday muomaladan dovdirab qoldi va ularning oldiga keldi.

- Bolam, - deb gap boshladi Shuhratning onasi. - Maktabda bo'lib o'tgan noxushliklardan xabarim bor. Bilaman, bolamning ko'ngli bo'sh, kim nima desa, yo'q demaydi. Dadasi esa buni xohlamaydilar. O'g'il bolaga o'xshab yursang-chi, - deb terganlari tergan. Bir

hisobdan ularning gaplari ham to'g'ri. Shuhratni senga o'xshagan durkun bola bo'lishini juda-juda istagandim. Ammo mendagi kamqonlik bolamga ham o'tib, Shuhrat nimjon bo'lib qoldi. Nachora, bu ham Xudoning xohishi-da. Shuhrat erta-indin kasalxonadan chiqadi, ammo endi maktabga borgisi yo'q. Sendan hayiqayotganmish. Agar uning ko'ziga yomon ko'rinib qolsam, sinfdoshlarimning barchasi meni yomon ko'rib qolishadi, deydi. Uni boshqa maktabga o'tkzamsam, u yerda ham qiynaladi-da. Axir zo'ravonlar barcha maktablarda bor.

Bu gap Ikromning nafsoniyatiga tegib ketdi. Sinfnin zo'ri bo'lib ketganidan o'z-o'zidan uyaldi.

- Zarifa xola, uni boshqa maktabga o'tkazmang, men uni himoya qilaman, - dedi Ikrom qat'iyat bilan. Shu voqeadan keyin Shuhrat Ikrom bilan qalin do'st tutinishdi.

Ozoda TURSUNBOYEVA.

Qadrli o'quvchilar, tarixsiz kelajak yo'qligini hammangiz juda yaxshi bilasizlar. Shuning uchun ham biz boy tariximizni qadrlab, undan ko'p narsalarni o'rganishimiz kerak.

O'qigan bo'lsangiz, gazetamizning avvalgi sonida Ibrohim aka «Ma'mun akademiyasi» haqida hikoya qilgandilar. Yurtimizda qadimiy va ko'hna Qarshi shahrining 2700 yilligini qarshi olish uchun qizg'in hozirlik ko'rilayotgan ayni kunlarda Ibrohim akadan ana shu shahar tarixi haqida so'zlab berishlarini iltimos qildik:

TARIX SAHIFALARINI VARAQLAGANDA

Qarshi shahrining 2700 yilligi oldidan

O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri Qarshi shahridir. U turli davrlarda Bolo, Nashebo, Naxshab, Nasaf nomlari bilan yuritilib, XIV asrdan boshlab Qarshi deb nom olgan.

«Qarshi» nomining kelib chiqishi to'g'risida turli fikr va taxminlar mavjud. Akademik V.V.Bartold shaharning nomi mo'g'ul xoni Kepakxon qurdirgan Saroy ma'nosidan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi. «Qutadg'u bilig» dostonida ham «Qarshi» atamasi «Saroy» ma'nosida qo'llanilgan. «Boburnoma»da ham bu nom mo'g'ul tilidan olinganligi aytiladi. Dastlabki shahar Qarshi vohasida «Naxshab» nomi bilan miloddan avvalgi VII asrda Yerqo'rg'on o'rnida vujudga kelib, uning atrofi qal'a devori bilan o'rab olingan. Shaharning yana bir nomini Novtak-Navtaka yangi bino deb talqin qilinadi. Miloddan avvalgi VI asrda shahar kengayib, ichki devor bilan o'ralib, maydoni 35 gektarni tashkil etgan. Miloddan avvalgi III-II asrlarda shahar maydoni 150 gektar bo'lgan tashqi qal'a devori bilan o'ralgan. Aleksandr Makedonskiy bosqini davrida shahar vayron qilingan. Miloddan avvalgi II-I asrlarda yangi markaz



maqomini olgan Zakhoki-Moron shahri bunyod etilgan. Bu qal'a ham Naxshab nomi bilan asta-sekin kengaya bordi (qoldiqlari hozir Shulluktepa deb ataladi). Kidariylar o'z qarorgohini 468-yilda yangi Naxshabga ko'chirdilar. 710-yilda arablar shahar Naxshab, ya'ni, Nasafni va uning atrofidagi hududlarni bosib oldilar. IX-XIII asrlarda Naxshab (Nasaf) ravnaq topdi. O'rta asrlarda Nasaf orqali Eron va Hindistonni Rossiya,



Yevropa davlatlari bilan bog'lagan muhim karvon yo'llari o'tgan. Savdo, hunarmandchilik rivojlangan.

1220-yilda Naxshab (Nasafni) Chingizxon qo'shinlari vayron qiladi. Undan keyingi davrda XIV asrda voha markazi uch marta, hozirgi Qarshi shahrining eski shahar qismi o'rnida qayta tiklandi. Chig'atoy ulusi xoni Kepakxon (1318-26) yillar Nasafdan ikki kilometr uzoqlikda qasr qurdirib, poytaxtni Qarshi deb atalgan qal'aga ko'chiradi. Shahar hududidan topilgan arxeologik yodgorliklar, bino qoldiqlari Qarshida XIV asming birinchi yarmida bir qancha imoratlar mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Buyuk sohibqiron Amir Temur hukmronligi davrida (1365-66-yillar) shahar qo'rg'oni atrofi g'isht va paxsa devor bilan o'ralgan, shaharda Odina masjidi qurilgan.

Bugungi kunda Qarshi shahrining 2700 yilligini munosib kutib olayotgan qarshiliklar bu tantanaga peshvoz chiqmoqdalar. XVI-XX asrlarda qurilgan Ko'k gumbaz masjidi, qadimgi hammom, Qashqadaryo ustidagi qadimiy ko'prik, Sharafbo'y madrasasi, Chakar masjidi, Bektemir madrasasi, Xoji Abdulaziz madrasasi va Qilichboy madrasasi hamda boshqa me'moriy yodgorliklar saqlanmoqda.

Ma'mura MADRAHIMOVA yozib oldi.

Shahringiz tarixini bilasizmi?

Mening-kichik do'stlarim! Yurtimizda qo'hna va qadimiy shaharlar ko'pligini yaxshi bilasiz. Andijon, Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent kabi dunyo tanigan go'zal shaharlar ona yurtimiz durdonalaridir. Ular qatorida yana bir go'zal shahar borki, qadimiylik va navqironlikda bu shaharlardan qolishmaydi. Bu go'zal Marg'ilon shahridir. Bugungi kunda shahar shu naqadar go'zallashib ketganki, agar bir bor shaharda mehmon bo'lsangiz, u yerdan aslo ketgingiz kelmay qoladi.

bo'lgan ekan? Uning yoshi ma'lumotlar X asrga taalluqli bilan yuritilgan. Bu nomning «Marg'ilon» so'zining o'zagi Menimcha, bu nomning berilishiga bu joyning doimo yashil daraxtlar, maysalar va gullar bilan o'ralib turishi sabab bo'lgan bo'lsa kerak... XX asr boshidagi tarixchi



Xo'sh, bu zamonaviy shaharlarning tarixdagi o'rni qanday nechada? Shahar tarixiga nazar solsak, u haqidagi ilk yozma ekanligini ko'ramiz. U davrlarda shahar «Marg'inon» nomi kelib chiqishini olimlarimiz qo'yidagicha izohlaydilar. «Marg'» - «maysazor», «o'tzor» ma'nolarini anglatadi.

MAYSAZOR SHAHAR

olimimiz Ibrat o'zining «Tarixi Farg'ona» asarida, Marg'ilon shahriga 883-yilda asos solingan, deb yozadi. Dastlab bu joyda katta qishloq vujudga kelib, XII asrlarda shaharga aylantirilgan.

Ulug' bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining «Boburnoma» asarida Marg'ilon Farg'onaning 8 ta shahridan eng kattasi ekanligini aytib, shaharning obodligi, shirin mevalari haqida, uning «donai kalon» deb ataluvchi anori va «subhoni» navli o'rigi xususida so'z yuritadi.

Marg'ilon azal-azaldan o'zining atlas matosi bilan mashhur bo'lib kelgan. Juda ko'p asrlar davomida Marg'ilonning atlas va shoyi matolarini Misr, Eron, Yunoniston, Qashg'ar savdogarlari xarid qilishgan. Marg'ilonida do'ppido'zlik, misgarlik rivojlangan. Bu ulug' shaharda buyuk allomamiz Burhoniddin Marg'inoniy yashab o'tgan, mashhur shoiramiz Jahon Otin Uvaysiyning tug'ilgan shahri ham Marg'ilonidir. Bu qadimiy shaharni bir bor ko'rish uchun chet ellik va yurtimiz sayyohlari tez-tez kelib turadilar. Marg'ilon shahrining 2000 yillik to'yi nishonlanayotgan ayni kunlarda u hamma qatori siz bolajonlarga ham quchog'ini keng ochib turibdi.

Erkinjon UMAROV,

O'zMU jurnalistika fakulteti talabasi.

BORGANIMGA AFSUSLANMADIM

Uchinchi chorakni yakunlab, ta'tilga chiqqan kunimiz oyijonimga bergan va'dalarini eslatdim. Ular, ta'tilda aylantirishga olib boraman, degandilar-da.

- Kiyininglar, bugun sizlarni Amir Temur muzeyiga olib boraman, - deb qoldilar.

- E, men bormayman, u yerda nimani ham ko'rardim, - deya avvaliga uyda qolmoqchi ham bo'ldim. Lekin kun bo'yi bir o'zim zerikib o'tirishimni o'ylab, opalarimga hamroh bo'ldim...

Muzey tashqi ko'rinishining o'ziyoq meni hayratda qoldirdi. Bizni muzey zallari bilan tanishtirib borayotgan, xodimi har bir eksponat haqida alohida to'xtalib, bizga yetarli ma'lumotlar berib borardi. Muzeyning katta va mahobatli zallarini, undagi o'zimizning tarixdan so'zlovchi suratlar-u buyumlarni ko'rib, katta zavq bilan uyga qaytdim. Oyijonimning, muzey yoqdimi degan savollariga, yoqish ham gapmi, endi ustozimga aytib, sinfdoshlarim bilan birga boraman, dedim.

Mohira ABDUSHUKUROVA,

Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi

116-maktabning 5-sinf o'quvchisi.

BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz gazetamiz sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga ma'lum qiling. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib yoziladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi.

Maqsadimiz: Bilimli bo'ling, chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.

GO'ZALXONGA AYTAR GAPIM BOR...

Salom, qadrdonim «Tong yulduzi!» Men har bir soningni qo'ldan qo'yamay o'qib boraman. 4-soningda chop etilgan «Men ortiqchamanmi?» maqolasini o'qib, biroz o'ylanib qoldim. Go'zalning o'z otanasidan norozi bo'lishi noto'g'ri, menimcha. Chunki mening talaygina do'stlarim ham oilada bosh farzandlar, ularning otanalari ham ishlaydilar. Ularga ham yoshlariga nisbatan mushkulroq bo'lgan ishlarni buyurib ketishadi. Menimcha, oiladagi to'ng'ich farzandlar ota-ona uyda yo'qligida uka va singillari uchun javobgar bo'lishlari tabiiy hol.

Go'zalxon, siz ham ota-onangizni tushunishga harakat qiling. Axir ular farzandlari uchun ishlashadi-ku. Qattiqqo'lliklariga kelsak, menimcha, kezi kelganda shunday bo'lgani ma'qul. Onangiz sizni bekorga tergamaydi. Qolaversa, har bir ota-ona farzandini odobli, a'lochi, har tomonlama komil inson bo'lishini istaydi. Onangiz sizni tartibga chaqirsa, buning nimasi yomon?

Sadoqat ZOIROVA,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi
26-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi.

Aks-sado

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» tahririyati xodimlari! Biz, 5-sinf o'quvchilari gazetangizning har bir sonini qo'ldan qo'yamay o'qiyamiz. Undagi krossvordlarni birgalikda yechib, topishmoqlarning javobini topishga harakat qilamiz, maqolalarni o'qib, birgalikda

Bizga gazetaning bir borilgan E.Malikovning hikoyasi juda yoqdi. Hikoyae'tiborga olmaydigan arzimasalar ham aslida o'ynashi ustalik

Ayniqsa, itning egasini bo'lajak bir marta o'z sinfdoshlarim miriqib o'qidiktug'ildi. hodisalar juda Hikoyadagi to'g'rimi? Uni

shunday qiziqarli hikoyalardan gazetamiz sahifalarida tez-tez berib turishingizni istardik.

shuningdek, hikoyalarni, bahs va munozarali muhokama qilamiz. necha sonida davomiy «Osmondan tushdagi voqea-

tarzda berib gan Oqtosh» lar, biz uncha narsalar va hodi-

hayotimizda katta rol bilan yoritib berilgan. odamga vafodorligi, o'z xavfdan ogohlantirishi yana isbotini topgan. Biz bilan bu hikoyani juda va bizda bir necha savollar

Hikoyada bevosita tabiat bilan bog'liq bo'lgan ko'p. Bizning savolimiz esa quyidagicha:

o'rik, tut va bodom daraxtlari haqidagi gaplar biz ham amalda qo'llab ko'rsak bo'ladimi?

Savolimizga javob yo'llashingizni hamda mana

Feruza RAHMONOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
Qaynar qishlog'i, 5-«A» sinf o'quvchisi.

Mening bo'sh vaqtim

ONAM - USTOZIM MENING

- Men Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahridagi 6-o'rti maktabning 5-sinfida tahsil olaman. Bo'sh vaqtlarimda gazeta va jurnallarni varaqlab, undagi qiziqarli maqolalarni o'qishni yaxshi ko'raman. Jumladan, «Tong yulduzi»ni ham har sonini qo'ldan qo'yamayman. Menga tengdoshlarim yozgan she'r va maqolalar juda yoqadi. Bo'sh vaqtlarimda o'zim ham qog'oz qoralab turaman. Ularni onajonim tahrir qilib beradilar. Quyida o'zim yozgan qatrani sizlarga yuborayapman:



MENR HAMMAGA KERAK

Maktabimiz biqinida qarovsiz bir bog' bor edi. Ana shu bog'da sayr qilib yurganimda olma, nok, olcha daraxtlari meni kuzatib turgandek tuyulaverardi. Nazarimda, ularning ham joni bordek, ko'pni ko'rgan, bilgan nuroniy odamlarga o'xshardi. Ular mendan mehr, parvarish kutayotgandek edilar, go'yo.

Yaqinda bog'ni parvarish qilishga bog'bon keldi. Yuzlariga ajin soya solgan, ko'zlaridan nur to'kilgan bu inson barcha daraxtlarni mehr bilan parvarish qilishga kirishib ketdilar. Endi boqqa kam tushadigan, uni ko'proq maktabimizning ikkinchi qavatidan kuzatadigan bo'ldim. Bog'dagi daraxtlarda ham bahor nafasi ufurib, bog'bon parvarishidan so'ng ancha yosharib, gurkirab ketgandek edi. Ularni ko'rib, bir narsani tushunib yetdim. Tabiat ham, barcha jonzotlar, o'simliklar xuddi o'zimizga o'xshab mehrga tashna bo'larkanlar. Bizning parvarishimiz, e'tiborimiz ularga jon baxsh etishi, yomon fe'limiz esa nobud qilishi ham mumkinligiga amin bo'ldim.

Manzura MUSTAFOYEVA.

«TONG YULDUZI»GA YETMAYDI

Ta'til kunlarida ham bu gazeta hamrohim bo'ldi. Bo'sh vaqtlarimda undagi maqolalarni o'qib, men ham qog'oz qoraladim. Qadrdon gazetamga men uchun eng aziz inson bo'lgan dadajonim haqida yozmoqchiman. Issiqni-issiq, sovuqni-sovuq demay farzandlari uchun tinmay mehnat qilgan, bizni yaxshi yedirishga, kiydirishga, birovdan kam qilmaslikka harakat qilgan mehribon dadajonimga fursatdan foydalanib, minnatdorchilik bildirmoqchiman. Dadasining ish joyi, kiynishidan do'stlari oldida or qiladigan ayrim tengdoshlarimga aytar so'zim bor: «Ota-onangizni hurmat qiling. Ishongan do'stingiz, birodaringiz ham sizga xiyonat qilishi, bir kuni sizni sotib ketishi mumkin. Ammo ota-onadek xokisor insonlarni hech qachon topa olmaysiz».

Shohida OCHILOVA.

MEN CHAQQON QIZ BOLAMAN



- Men Munisaxon Abdullayeva Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi J.Do'stimurodov nomli 36-maktabda a'lo baholarga o'qiyman. Bo'sh vaqtlarimda turli kitoblarni o'qish bilan birga ustozim Shahzoda opadan yumshoq o'yinchoqlar tikishni ham o'rganaman. Sportning yugurish turi bo'yicha tengdoshlarim orasida menga yetadigani yo'q. Bu chaqqonligimni uyda ota-onamga ro'zg'or ishlarida ko'maklashishga ham «sarflab» turaman.

Quyida tengdoshlarimga rus tilidan o'zim tarjima qilgan ertagimni yuborayapman:

OLMAXON BILAN BO'RI

Kunlardan bir kuni Olmaxon shoxdan-shoxga sakrab yurib, daraxtning tagida uxlab yotgan bo'rining ustiga qulab tushibdi. Bundan g'azablangan bo'ri unga tashlanibdi. Keyin biroz shashtidan tushib:

- Ayt-chi, uzundum, nega siz olmaxonlar har doim xushchaqchaq bo'lib yurasizlar? Biz bo'rilar esa, doim odamlar ko'ziga zolim bo'lib ko'rinaveramiz?- deb so'rabdi.

- Bo'rijon, hozir bu savolingga javob bera olmayman. Qo'yib yuborsang, albatta aytardim, debdi olmaxon. Bo'ri olmaxonni qo'yib yuboribdi. Shunda olmaxon daraxtga chiqib olib:


- Bilasanmi, biz olmaxonlar ochiq ko'ngil, hech kimga ozor bermaydigan jorivorlarmiz. Shuning uchun ham doim quvnoq bo'lib yuramiz. Siz bo'rilar esa boshqa jonzotlarga ozor berib, qonxo'rlik qilaisizlar. Shuning uchun ham doim g'azabnok ko'rinasizlar, - debdi-da, shoxdan-shoxga sakrab qochib qolibdi.



DILINGA TUGIB QO'YDIM

Inson agar ezgu niyat qilsa, albatta niyatiga yetadi, deyishadi. Men ham bir niyat qilib, uni dilimga tugib qo'yganman. Qanday niyat deysizmi? Kelajakda zo'r musiqachi bo'lish. San'atga yaqin kishilarning qalblari pok bo'ladi, deyishadi. Men ham san'at olamiga qadam qo'yarkanman, bu sirli olamning past-u balandliklarini, og'ir-u yengilliklarini sabot bilan yengishga harakat qilaman. Nay, gitara chalishga juda qiziqaman. Kelinoyimning tug'ilgan kunlarida gitara chalib, qo'shiq aytganim hali-hanuz yodimda. Yaxshi qo'shiq ko'ngil davosi, deydi dono xalqimiz. Men ham yaxshi qo'shiqchi bo'lib, o'zbek navolarini butun dunyoga tanitmoqchiman.

Dilnoza ESHONOVA,
Samarqand viloyati, Ishtixon
tumanidagi Safaxo'ja qishlog'i.



10 YILGA KO'RGAZMA

– Muzey tashkil topganiga bu yil o'n yil to'ladi. Yubiley arafasida ishlarimiz ko'paygandan-ko'paygan. Ketma-ket tadbirlar uyushtirish, ko'rgazmalar tashkil qilish bilan bandmiz. Bo'sh vaqtning o'zi yo'q. Siz o'zingizni qiziqirgan savollarni beravering, yo'lma-yo'lakay javob berib ketaman.

– **Muzey tashkil qilinganda eksponatlar soni juda kam bo'lgan ekan. Hozir esa juda ko'p. Bunga qanday erishildi?**

– Prezidentimiz tashabbuslari bilan boshqa muzeylardan Amir Temurga tegishli bo'lgan eksponatlarni olib kelib muzeyni ochgandik. Shu kungacha eksponatlarimiz soni 3 barobar ortdi. Bizga, avvalambor, xalqimiz yordam berdi. Otabobolaridan meros qolib, uylarida qadimdan saqlanib kelinayotgan buyumlarini olib kelib berdilar.

Bundan tashqari, o'zimiz arxeologik ekspeditsiyalar tashkil qildik. Topilmalar bilan muzey fondini boyitdik.

– **Bobomiz tavalludlarining 670 yilligiga muzeyning 10 yilligi qo'shilib nishonlanar ekan. Shu munosabat bilan muzeyda qanday tadbirlar rejalashtirilmoqda?**


– 9-aprel kuni Amir Temur haykali poyiga gulchambar qo'yiladi. Yoshlar bilan davra suhbatlari o'tkaziladi.

Asosiysi, «10 yillikka – 10 ko'rgazma» ruknida ko'rgazma tashkillashtirdik. Bu rukn ostidagi ko'rgazmalar O'zbekiston tarixi va Temuriylar tarixi davlat muzeyi faoliyatidan bir qator ma'lumotlar beradi:

1. «O'zbekistonda Yozuv madaniyati tarixi». Bu ko'rgazmada yozuvning paydo bo'lishidan tortib, asrlar osha bosib o'tgan yo'li, qadimdan saqlanib kelinayotgan turli alifbolar haqida ma'lumotlar, uch ming yil avval tamal to'shi qo'yilgan o'zbek

davlatchiligi **Amir Temur tavalludining 670 yilligi oldidan** tarixi bilan uzviy bog'liq ekanligi daliliy ashyolar vositasida ko'rsatiladi.

2. «Shohruhiya qal'a-shahri». Bu ko'rgazma Amir Temur va temuriylar davrining noyob yodgorligi Shohruhiya xarobalaridan topilgan ashyolar asosida tashkillashtirilgan bo'lib, XIV-XVI asrlarda shahar madaniyatining



rivoji beqiyos o'sganligi haqidagi ma'lumotlarni beradi.

3. «Xorijdagi merosimiz». Bu ko'rgazmadan taqdir taqozosi bilan chet ellarga olib ketilgan yuzlab noyob tarixiy ashyolardan yuzga yaqini (miniatyura, sopol, metall buyumlar kabi) asosidagi fotoko'rgazma o'rin olgan.

4. «Amir Temur-Klavixo-Samarqand». Bu yerda Amir Temur davlati bilan Kastiliya qirolligi (Ispaniya) o'rtasidagi do'stlik aloqalarining va bu aloqalarning bugungi kundagi davomiyligini ko'rish mumkin.

5. «Amir Temur hikmatlari

Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim.

Saltanat ishlarini murosalyu madora, muruvvat va sabr-toqat bilan yurgizdim.

Menda biron kimsaning haqi bo'lsa, haqini hech vaqt unutmadim. Biron kimsa bilan tanishgan bo'lsam, uni hech vaqt nazarimdan chetda qoldirmadim.

Amir Temur hayotidan lavhalar». Ko'rgazmada Respublikamizning taniqli rassomlari tomonidan Amir Temurning faoliyati, yurt mustaqalligi yo'lida olib borilgan janglari, obodonchilik ishlari haqida hikoya qiluvchi rasmlari namoyish qilinadi. Shuningdek, 1941-yili Go'ri Amir maqbarasidagi Amir Temur, uning o'g'illari

Bundan roppa-rosa 10 yil avval, ya'ni, 1996-yilning 14-martida yurtboshimiz qarori bilan qurilishi boshlangan Temuriylar tarixi davlat muzeyi o'sha yilning 18-oktabrida ishga tushdi. Poytaxtimiz ko'rkiga ko'rk bo'lib turgan binolar safidan o'rin olgan bu muzeyning tarixi va buguni haqida to'liqroq ma'lumot olish, shuningdek, sohibqiron ruhini shod etib, uni yod etish maqsadida muzeyda bo'ldik. Bizga ilmiy ishlar bo'yicha direktor muovini, tarix fanlari nomzodi O'tkir a'k a berdilar:

Mironshoh, Shohruh, nabiralari Ulug'bek va Muhammad Sulton qabrlarini ochilishi va ularni natijalari haqidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan.

6. «Amir Temur va temuriylar davri rassomlar nigohida». Bu ko'rgazma Respublikamizdagi mo'yqalam sohiblarining ijodi va ular tomonidan temuriylar davrining tarixiy lavhalar aks ettiruvchi rangli rasmlar asosida yaratilgan.

7. «Amir Temur va temuriylar davri olimlar va yozuvchilar nazdida». Bu yerda ilm ahli (olimlar, yozuvchi va shoirlar)ning faoliyati, ularning Amir Temur va temuriylar davri tarixiga bag'ishlab yozilgan ilmiy asarlari, romanlari, she'rlari namoyish etilgan.

8. «Sovg'alar». Sakkizinchi ko'rgazmadan muzeyga Prezidentimiz Islom Karimovning, xorijiy davlatlardan kelgan faxriy mehmonlar, shuningdek, Respublikamiz ahli tomonidan muzeyga tortiq etilgan turli ko'rinishdagi buyumlar joy olgan.

9. «Dastxatlar». Faxriy mehmonlarning muzey haqidagi taassurotlari asosidagi ko'rgazma.

10. «Temuriylar tarixi davlat muzeyi 10 yoshda». Bunda muzeyning 10 yil davomidagi faoliyati fotosuratlar va nashr ettirilgan ilmiy ishlar asosida yoritib berilgan.

Tadbirimizda davlat arboblari, respublikamizning taniqli temurshunos olimlari va yosh tadqiqotchilari ishtirok etadilar.

– **Muzeyning asosiy tomoshabinlari...**

– Maktab, kollej, institut, universitetlar bilan shartnomalar tuzganmiz. Ko'pgina o'qituvchilar ochiq darslarini muzeyda o'tishadi. Bundan tashqari, ko'plab faxriy mehmonlar, chet ellik sayyohlar kelishadi. Siz menimcha hozir ko'pchilikning muzey aylanishga xohishi bormikin, deb so'ramoqchisiz, to'g'rimi? Oilaviy ham kelib muzeyimizni tomosha qilib ketishadi. Axir muzeyimiz ko'rinishining o'zi bir muzey-ku. O'zining ko'rkamligi, chiroyi, betakror sharqona uslubda qurilganligi bilan kishilar e'tiborini jalb qila oladi. Shuning uchun ham muzeyimiz doimo gavjum. Ayniqsa, o'quvchilarning ta'til kunlarida maskanimiz bolajonlar bilan to'lib ketdi. Farzandlarini yetaklab kelib, buyuk ajdodlari bilan tanishtirish, shuning barobarida ularning murg'akkina qalblarida faxr va iftixor, tariximizga hurmat hissini shakllantira borishga intilayotgan otalarimizdan behad minnatdormiz. Vaholanki, bolalarini biron bir saylgohgami, o'yingohgami olib borishlari ham mumkin edi-ku. Ishonamizki, ular farzandlari qalbiga ekan ezgulik urug'ining totli mevasidan albatta bahramand bo'lalilar.

– **Maroqli suhbatimiz, qiziqarli ma'lumotlaringiz uchun rahmat. Millatimiz faxri bo'lmish muzeyimiz eksponatlari soni yanada ortib, «yoshiga yosh» qo'shilaversin.**

Ma'sudabonu VOHIDOVA.



NOMI DOSTON TILLARDA

Bobomiz Amir Temur,
Yodi yashar dillarda.
El-yurtga udir g'urur,
Ishi doston tillarda.
«Sohibqiron» deganlar,
Bu bejizga emasdir.
«Mustahkam ruh» deganlar,
Yovga hech bo'sh kelmasdir.
Bobomiz shunday bo'lgan:
Yovning inini buzgan.
«Kuch – bu adolatda» deb,
Odil qonunlar tuzgan.
«Temur tuzuklari» da,
Bo'lgan ular mujassam.
Hammaga tushuntirgan,
Qo'shini bo'lganda jam.
Qurdirgan ko'p binolar,
«Oq Saroy» va «Ko'k Saroy».
Ular mahobatida –
Hozir ham bordir chiroy.
Aql, kuchda tengi yo'q,
Bo'lgan u – Sohibqiron!
Hatto tarixda ham yo'q,
Unga teng podshoh biron!

Bahrom TOJIYEV.



MANZILSIZ HIKOYA



Mening birgina yaqin dugonam bor. Biz u bilan bir mahallada yashaymiz. Ismi Kamola. Men uning aqlliligi, odobi va shirinso'zligiga juda havas qilaman. Uni bir kun ko'rmay qolsam, xuddi biror narsamni yo'qotib qo'ygandek bo'laveraman. Shu sababli ham tez-tez uylariga borib turaman. Oramizda deyarli hech qanday

sir yo'q, bir-birimizga juda ishonamiz.

Lekin bir marotaba men uning ishonchini oqlay olmaganman. Boshqa chin do'stlarga ibrat bo'lishi uchun ham ming istihola bilan bo'lgan voqeani so'zlab bermoqchiman. Voqea bevosita men qatnashayotgan to'garak bilan bog'liq. Bir kuni Kamolaga:

– Seni o'zim borayotgan to'garakka olib boraman. Lekin u yerga borish uchun birorta maqolami, she'rmi yozgan bo'lishing kerak, - dedim.

U juda xursand bo'lib ketdi. Biz to'garakka bordik. Odatga ko'ra barchamiz yozib kelgan maqola, hikoya va she'rlarimizni o'qiy boshladik. Navbat menga keladi. Tuni bilan yozib chiqqan hikoyamni o'qib berdim. Ustozimiz diqqat bilan tinglab turdilar-da, ayrim kamchiliklarim borligini, shularni tuzatib, qayta ishlab kelsam, gazetada chiqarish mumkinligini aytdilar. Keyin Kamola ham yozgan hikoyasini chiroyli qilib o'qib berdi. Buni qarangi, uning hikoyasi ustozimizga ham, bolalarga ham juda yoqdi.

– Manzilingni to'liq yozib ber. Hikoyangni albatta chiqaramiz, - dedilar ustoz mamnun bo'lib. Men g'alati ahvolga tushib qoldim. O'z dugonamni yutug'idan quvonish o'rmiga unga... unga hasad qila boshladim.

– Kel, manzilingni men yozib beraman, - dedim-da, faqatgina ism-familiyasini yozib, hikoyani ustozning stoliga qo'yib qo'ydim. Qo'llariga bersam, tumani, maktabi, sinfini ham yozib bergin, deya qaytarib berishlari aniq edi-da. Shundan keyin Kamolaning to'garakka kelishga vaqti bo'lmadi. Lekin har dushanba mendan maqolam chiqdimi, deb so'rab turardi. Manzil noaniq bo'lsa, maqola chiqmasligini yaxshi bilganim uchun ham unga nima deb javob berishni bilmasdim. O'sha kundan boshlab vijdon azobidaman. Men adabiyot bo'yicha undan kuchliroq ekanligimni, qiziqishim ham unikidan yuqori ekanligini bilardim. Lekin shuni bila turib o'z dugonamga nega bunday munosabatda bo'lganimni haligacha tushunolmayman. Oxiri xudbinligimni, uning oldidagi aybimni yuvish uchun gazeta orqali undan kechirim so'rashga qaror qildim:

«Kamola, maqolamni sen o'qish uchun va meni kechirish uchun yozdim. Men bu bilan do'stlikning shartlarini buzganligimni tan olmoqchiman. Iltimos, qalbimni vijdon azobidan xalos et. Meni kechir, Kamola».

*Ma'fura JAMOLIDDINOVA,
Toshkent viloyati, Zangiota tumani.*

EGASINI TOPMAGAN RAHMAT



Qadrlı «Tong yulduzi!» Sening rang-barang sahifalaringni zo'r qiziqish bilan o'qib boraman. Ayniqsa, «Kechiring» sahifasi juda yoqadi.

Yaqinda men bilan ham xuddi shu sahifangbop voqea sodir bo'ldi. Sinfimizda shanbalik uyushtirdik. Ustozimiz biz to'rt nafar dugonaga sinf pardalarini yechib, oynalarni yuvib qo'yishimizni tayinladilar. Shu kuni Noila ismli dugonamiz kelolmadi, isitmalab qolibdi. Ikki dugonam oynalarni

artadigan, men esa pardalarni uyga olib ketib, yuvib keladigan bo'ldik. Noilalarning uyi biznikiga ketaverishda edi. Shu payt xayolimga bir fikr keldi: pardalarni shanbalikda qatnashmagan uchun ustoz senga berib yubordilar, deb Noilaga tashlab ketsam-chi...

Shunday qildim ham.

– Noila ertaga ham maktabga borolmaydi. Pardalarni o'zim yuvib qo'yaman. Ertalab biznikiga kirsang, ularni olib ketarding, - deya iltimos qildi onasi.

Oppoq qilib yuvilgan, dazmollangan pardalarni ko'rib, ustoz juda quvonib ketdilar va:

– Oyjioningga kattakon rahmat aytib qo'ygin, - dedilar yelkamga qoqib.

Men esa, «arzimaydi, ustoz», deya sinfdan chiqib ketdim...

Bu gapni hech kimga aytmasam ham bo'lardi. Lekin vijdon azobi qiynayapti-da. Mehnatni Noilaning onasi qilib, rahmatini mening onam eshitdilar-da, axir.

Shuning uchun dugonamdan ham, ustozimdan ham kechirim so'ramoqchiydim.

*Zahro QURBONOVA,
Toshkent shahri, Sobir Rahimov tumani.*

OYNING BALAND NUQTADAN TUSHMOG'I BORDIR...

Yetuklikning asosi ustoz bergan ta'limda. Shunday ekan, bizni yetuklik sari yetaklagan insonlarni ardoqlashimiz, joiz bo'lsa, ularni boshimizda ko'tarishimiz lozim. Lekin bu yozilmagan qonunga hammamiz ham amal qilyapmizmi?.. Men bir kishini ko'pdan beri taniyman. Hali ancha yosh bo'la turib kattagina lavozimda ishlaydi. Odamlar orasida ham yaxshi xulqi bilan obro'-e'tibor qozongan. Vaqti soati yetib, u oila qurishga ahd qildi va orzu havas bilan to'y qildi. To'yiga uning shu darajaga yetishiga sababchi bo'lgan bir inson - ustoz ham keldi. Uni avvaliga izzat-ikromlar bilan kutib olishdi. Davradagi kazo-kazo mehmonlar orasidan joy berishdi...

Kelin-kuyovni qutlab uzundan-uzoq «nutq» so'zlayotgan mehmonlar to'yga to'yona tariqasida katta-katta sovg'a-salomlar, hatto mashinaning kalitini ham topshirishdi. Ular orasida o'tirgan ustoz ham shogirdini qutlash maqsadida ikki og'iz so'z so'radi. Davraga chiqib gapirayotgan ustozini ko'rgan «kuyov bola»ning negadir kayfiyati tushib ketdi. Aftidan, u shunday kazo-kazolar orasida oddiygina odam bo'lishini xohlamayotgandi chog'i. Do'stiga sekingina shivirlab, uni davradan chiqarib yuborishni tayinladi. Ustozning gapi chala qoldi...

Xullas, to'y juda dabdabali o'tdi. Bu haqda ustoz hech qachon hech kimga gapirmadi. Bir kuni unga shu voqea haqida so'z ochgandim, haqiqiy ustoz hech qachon shogirdiga qilgan yaxshiligini pesh qilmaydi va u haqida nojo'ya gap gapirmaydi, deya gapni qisqa qilib qo'ya qoldi. To'g'risi, bu javobdan o'zim mulzam bo'lib qoldim va uning nomidan kamtarin va xokisor ustozdan kechirim so'radim.

Xayolimdanda esa quyidagi misralar kechardi:

Garchi parvoz qilib ko'kda uchmagin,

Quzg'unlar ichinda osmon ham tordir.

Kekkayib ketmagin, yerga ham qara,

Oyning baland nuqtadan tushmog'i bordir.

*Gulasal YUSUPOVA,
Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumanidagi jahon tillariga
ixtisoslashgan maktab-internatning 9 - sinf o'quvchisi.*

«SINFDOSHIM BO'LARDI...»

Yodgor ismli bir sinfdoshimiz bo'lardi. «Bo'lardi» deyishimga sabab, hozir u biz bilan o'qimaydi, baxtsiz hodisaga uchrab, yurolmaydigan bo'lib qolgan.

Juda odobli, kamgap bola edi. Shu bolaning biror marta yangi ust-bosh yoki oyoq kiyim kiyganini ko'rmagandik. Nuqul akasining eski kiyimlarini kiyib yurardi. Shundanmi, biz uni mensimasdik, o'g'il bolalar u yoqda tursin, hatto qizlar ham urib, turtib ketaverardik.

Bir kuni jismoniy tarbiya darsiga chiqqim kelmay, sinfda qoldim. Dugonalarimga: «Ustoz meni so'rasalar, Yodgor qorniga tepibdi, deb qo'yinglar», deya tayinladim. Bir payt sinf rahbarimiz Yodgorni boshlab sinfga kirib

keldilar. Men qadam tovushlarini eshitishim bilan boshimni partamga qo'yib, o'tirib oldim va qornimni changallab, ingray boshladim. Ustozimiz holatimni ko'rib, sababini ham so'rab o'tirmay, Yodgorni ura ketdilar... «Tarbiyaviy soat» tugagach, uni mendan kechirim so'rattirib, sinfdan chiqib ketdilar.

Endi kaltakdan yuzlari qizarib ketgan Yodgordan ko'radiganimni ko'rsam kerak, deb o'ylagandim. U esa menga bir qaradi-yu, indamay tashqariga chiqib ketdi...

Bu voqeadan so'ng u bir necha kun maktabga kelmadi. Keyin bilsak, ko'zlari jiqqa yoshga to'lib, katta ko'chadan o'tayotganda mashina turtib ketibdi.

Hozir u buvisinikida emish. O'gay onasi nogiron bolaning menga keragi yo'q, deya buvisinikiga olib borib tashlabdi.

Bu maktubni yozish vijdon azobida qolgan men uchun qanchalar qiyin ekanligi yolg'iz o'zimga ayon. Maqsadim – undan gazeta orqali kechirim so'rash.

«Yodgor, bilaman, uzrim seni oyoqqa turg'azib yubora olmaydi. Lekin baribir agar kechirolsang, kechir meni».

*Sobiq sinfdoshing NAZOKAT.
(Iltimos, manzilimni yozmang.)*

Tahririyatimizga bir kunda juda ko'plab insonlar kelib-ketishadi. Bolajonlarning-ku, keti uzilmaydi. Bu biz uchun oddiy holga aylanib qolgan, suhbatlashib, kutib-kuzataveramiz. Lekin oralarida shunday insonlar ham borki, ularni hammamiz intiq kutamiz, biroz hayallab qolishsa, sog'inib qolamiz. Maslahat-u nasihatlariga, ijodkorlikka yo'llovchi yengil tanbehlariga muhtojlik sezamiz o'zimizda.

QADRDONLARIM

Bolajonlarning sevimli qardoni – O'zbekiston xalq shoiri marhum Po'lat Mo'min edi ulardan biri. Tahririyatimiz qoshidagi «Istiqloq umidlari» to'garagi mashg'ulotlarida tez-tez qatnashib, bolalik xotiralaridan so'zlab berardilar. Gazetamizning «tandirdan yangi uzilgan» sonini varaqlab, o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashardilar. Kezi kelganda, taniqli bolalar adiblariga kamroq joy ajratyapsizlar-da, deya e'tiroz ham bildirib qo'yardilar...

Ana shunday insonlardan yana bir sevimli shoirimiz Nazarmat aka bo'lardilar. 90 bahorni qoralab qolgan jangchi shoirimiz kirib kelib, duoga qo'l ochsalar, xonamizga allanechuk nur, ziyo kirib kelgandek bo'ladi. Har birimiz bilan alohida suhbatlashib, ijodimiz bilan qiziqadilar. «Yangilaridan eshitib ko'ray-chi», deya bizni diqqat bilan tinglashga chog'lanadilar. «Yangisi»dan yo'q bo'lsa, «Yozishdan hech to'xtamaslik kerak. Dangasalik qilsangiz, qo'lingiz chiqib ketadi», deya koyib ham qo'yadilar. Shu tariqa o'zlari bilib-bilmay barchamizga ustozlik qiladilar. Keyin esa birma-bir boshqa tahririyatlarga ham kirib, qarddon hamkasblari bilan diydorlashib ketadilar...

Keyingi paytlarda ustozimiz biroz hayallab qoldilar. Boshqalarga

qanaqa bilmadim-u, lekin bizga o'rinlari juda bilinib ketdi. Ishdan nari o'tlanib, uylariga ko'rishga bordik. Kelinlari bizga peshvoz chiqib, otaxon huzuriga boshladi. Ota o'z qizini qanday qarshi olishini bir ko'z oldingizga keltirib ko'ring-a. Ustozimiz ham bizni xuddi shunday peshonamizdan o'pib, yelkamizga qoqib kutib oldilar. Shu o'tirgancha otaxonning do'stlari, shogirdlari bilan yozishmalari, bosmaga tayyorlanayotgan yangi kitoblarning qo'lyozmalarini o'qib, o'g'il, kelin va nabiralari bilan tanishib,



kunning qanday kech bo'lib qolganini ham sezmay qolibmiz.

– Nabiralaram omon bo'lishsin, biri-biridan yaxshi. Lekin o'rtancham Dilmurodning mehri bo'lakcha-da, -so'z boshladilar otaxon hovlida allaqanday yumush bilan andarmon bo'lib yurgan o'smir bolaga ishora qilib. – O'zi bank kollejida tahsil oladi. Darslari, uy yumushlari degandek. Lekin men uchun ham albatta fursat ajratadi. Tunov kuni kitoblarim orasidan dastxat yozilganlarini saralab, alohida qilib taxlab qo'yibdi. Biror yerga borgudek bo'lsam, yonimda suyanchiq bo'lib borishini, «Dodajon, nima yeysiz?» deya mehribonchilik qilib turishini aytmaysizmi?! Hoyo baxtli, taxtli yigit bo'lsin-da...

Otaxonning samimiy niyatlari bizni ham to'lqinlantirib yubordi. Shunday dili pok, tili shirin bobosini ardoqlab, duosini olib kelayotgan Dilmurodjon ham kelgusida o'z farzandlari, nabiralari ardog'ida bo'lsin, deya niyat bildirdik. «Inson qariganida qadr topsin», deganlari shu bo'lsa kerak-da.

Feruza JALILOVA.

YO'VVOYI BODOM

Tog' boshida, xarsang qoshida,
Oq bodroqday gullabdi bodom.
Oppoq bulut ro'mol boshida,
Ular menga keltirdi ilhom.
Bodom qoldi goya ustida,
Chor atrofi cho'ng xarsang toshlar.
Yurak uning gul havasida,
Zavqqa to'lib, asta kuy boshlar.
Tog' boshida o'sgan bodomim,
Sen o'rmonim, gul tabiatim.
Sen tog' guli, qo'shiq, ilhomim,
Sen bargagim, noz-u ne'matim.

USTOZLAR


(Dilmurodning she'ri)
Omon bo'lsin ustozlar,
Ta'lim bergan mumtozlar.
Ular dono muallim,
Berar bizga fan, bilim.
Mehr-u ta'limi hikmat,
Elga buyuk muhabbat.
Ular yo'li nur jahon,
Kamol topar har inson.
Omon bo'lsin ustozlar,
Ta'lim bergan mumtozlar.
NAZARMAT.

«AVTOMOBIL» AYLANMA KROSSVORDI

Belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili avtomobil markasi. 2. Motor moyi. 3. Rossiya Chexiya avtomobil markasi. 6. Motorning joylanadigan qism. 8. «Fiat» avtomobillari berish asbobi. 10. Avtomobil «yuragi», siya», «Matiz» vatani. 13. Kuzovi avtomobil. 14. Avtomobil qismlari Fransiyada ishlab chiqarilgan mobil kuzovi turi. 18. Avto-

CHAVNVORD

19. Birinchi bor ixtiro yoqilg'i manbai. 20. Av-21. Yoqilg'i bug'i bilan yorlovchi asbob. 22. Oso-lovchi qism. 23. Suvni Fransiya avto firmasi. 25. 26. Chexiyada ishlab chiqa-27. Sovuq iqlim sharoitida da. 28. Ukraina avtomobil porshen aylanadigan qismi. avtomobil. 31. Barcha bo'laklar Germaniyada ishlab chiqarilgan ikkinchi qavati. 34. Angliya avto-foydalaniladigan moslama. 36. Ya-Ko'p o'rinli transport. 38. Harakat tezligini poygasi. 40. Vengriya avtobusi. 41. Og'ir yuk



yo'nalishida: 1. Vatanimizda ishlab chiqarilayotgan yengil avtomobil rusumi. 4. Kuzov qismi. 5. aylanuvchi qismi. 7. Yo'lovchi va yuk ishlab chiqariladigan shahar. 9. Havo 11. Boshqarish dastasi. 12. «Nek-limuzin turidagi ramali kamyob majmui. 15. Kuzov turi. 16. avtomobil. 17. Yengil avto-mobil saqlanadigan joy.

qilingan avtomobilning tomobil yurish qismi. havo aralashmasini tay-yishta harakatni ta'min-sovituvchi asbob. 24. Yorug'lik tushuvchi qism. rilgan avtomobil rusumi. ishlatiladigan suyuq mod-rusumi. 29. Dvigatelning 30. Sovutish qurilmali o'rnatiladigan qism. 32. avtomobil turi. 33. Avtobusning mobili markasi. 35. Ta'mirlashda poniya avtomobil kompaniyasi. 37. ko'rsatuvchi asbob. 39. Avtomobillar avtomobili.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV.

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining gazetasi

Bosh muharrir vazifasini bajaruvchi:

Feruza JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar OLIMJONOVA,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Anvar ZOKIROV,
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Sobirjon SHARIPOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 022-raqam bilan 2003-yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.

Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

Adadi - 50103

Buyurtma N: J 2222

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin SHAYADGAROV.

Navbatchi:

Ozoda TURSUNBOYEVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-23-81

144-27-25

144-63-08

Tel/ faks:

(99871) 144-24-45